

FRANSIYA

*Ahmedova Mahliyo**Andijon Davlat Chet tillari instituti o'qtuvchisi**Rahimova Feruza Baxtiyorzoda qizi**301-gid hamroxligi va tarjimonlik faoliyati yo'nalishi talabasi*

Xulosa: Turizm hozirgi kunda Fransiya siyosatiga, iqtisodiyotiga katta hissa qo'shib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Turistlar tashrifi bo'yicha Fransiya dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi.

Tayanch tushunchalar: Fransiya, chegaradosh davlatlar, YuNESKO, turizm, yalpi ichki mahsuloti, sayohlar.

Fransiya—dunyoda eng ko'p sayyoh tashrif buyuruvchi mamlakat. 2013-yilda Fransiyadagi turizm yalpi ichki mahsulotga (YaIM) bevosita 79,8 milliard yevro hissa qo'shdi. Uning 30 foizi xalqaro tashrif buyuruvchilar hisobidan, 70 foizi esa ichki turizm xarajatlaridan to'g'ri keladi. Sayohat va turizmning umumiy hissasi YaIMning 9,7 % ni tashkil qiladi va mamlakatda 2,9 million ish o'rni (bandlikning 10,9 %) tashkil etadi[1]. Turizm to'lov balansiga katta hissa qo'shadi.

2018-yilda Fransiyaga 89 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Bu dunyodagi barcha mamlakatlar orasida eng yaxshi natijadir[2]. Fransiyada YuNESKoning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan 45 ta obyekt mavjud bo'lib, ularda yuqori madaniy qiziqishga ega bo'lgan shaharlar yoki joylar (birinchi o'rinda Parij, shuningdek, Luara vodiysi, Tuluza, Strasburg, Bordo, Lion va boshqalar), plyajlar va dengiz bo'yidagi kurortlar, tog'-chang'i kurortlari mavjud. Shuningdek, ko'pchilik o'zining go'zalligi va osoyishtaligi bilan zavqlanadigan qishloq hududlari (yashil turizm) ham salmoqli o'rinegallagan. Boy merosga ega bo'lgan kichik va go'zal fransuz qishloqlari (masalan, Kollonges-la-Ruj, Lokronan yoki Montsoreau) Les Plus Beaux Villages de France (so'zma-so'z „Fransiyaning eng go'zal qishloqlari“) uyushmasi orqali targ'ib qilinadi[3]. „Ajoyib bog'lar“ ro'yxati Madaniyat vazirligi tomonidan tasniflangan ikki yuzdan ortiq bog'larning ro'yxatidir.

Fransiya (fransuzcha talaffuzi: [fʁɑs] tingla), rasmiy nomi Fransiya Respublikasi (fransuzcha: République française)[5] — G'arbiy Yevropadagi davlat. G'arbda va shimolda Atlantika okeani hamda La-Mansh bo'g'ozini, janubida O'rta dengiz bilan o'ralgan. Maydoni 547,03 ming km². Aholisi 67,5 million kishi (2021). Poytaxti — Parij shahri. Ma'muriy jihatdan 22 region (viloyat), 96 departamentga bo'lingan. Fransiya tarkibida dengiz orti departamentlari (Gvadelupa, Martinika, Gviana, Reyunon), dengiz orti hududlari (Taiti, Yangi Kaledoniya, Fransiya Polineziyasi, Tinch okeandagi Uollis va Futuna orollari va boshqalar), hududiy birliklar (Mayotta va SenPyer va Mikelon) bor.

Fransiya – romantika, sevgi-muhabbat mamlakati. Uning hududida siz hamma narsani: chiroyli sohillar, mashhur Elizyey maydoni, Eyfel minorasi, Versal va boshqa diqqatga sazovor joylarni topishingiz mumkin.

Fransiyaning xilma-xilligi uni ideal sayyohlik joyiga aylantiradi. Bundan tashqari, bu mamlakat boy tarixga ega va ko‘p asrlar davomida Yevropadagi eng nufuzli davlatlardan biri bo‘lgan!

1. Mamlakat nomi german qabilasi vakillari franklar nomidan kelib chiqqan. "Frank" so‘zi "erkin" degan ma‘noni anglatadi.
2. Ushbu mamlakat turizm bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Har yili u yerga boruvchi sayyohlar soni mamlakat aholisi sonidan oshib ketadi.
3. Fransiya – Yevropa Ittifoqidagi eng katta mamlakat (643,801 km²). Hududi olti burchakli shaklga o‘xshaydi, shuning uchun ko‘pincha uni “L’Hexagone” deb atashadi.
4. Fransiya shiori 1789-yildagi Buyuk inqilob davrida paydo bo‘lgan "Liberté, Egalité, Fraternité" (ma‘nosi – “Erkinlik, tenglik, birodarlik”)ni hozir hamma joyda uchratish mumkin.
5. Gall xo‘rozi Fransiyaning norasmiy ramzi hisoblanadi. Rimliklar Fransiya hududiga kelishganida, uning aholisini gallar deb atashadi, chunki ularning sochlari qizil jingalak bo‘ladi va soch turmaklari xuddi xo‘roznikiga o‘xshardi ("xo‘roz" lotin tilida "gallus" deyiladi), mamlakat o‘zini Galliya deb nomlaydi. XVIII asrdagi Fransiya inqilobi davrida yangi yigirma frankli tangalar chiqariladi. Tangalarga xo‘roz surati tushiriladi. Mana shundan keyin xo‘roz Fransiya ramzi bo‘lib qoladi. O‘shandan boshlab xo‘roz surati markalar, medallar, plakatlar ustida paydo bo‘ladi va hatto Fransiya Milliy Olimpiya qo‘mitasining emblemasiga aylandi. Ularning fikricha xo‘roz fransuz jangovar ruhi va g‘ayratining eng yaxshi ramziy ifodasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Fransiyada_turizm
2. <https://xabardor.uz/uz/x/663143>